

ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASIDA INSONIYLIK VA HAYOT SABOQLARI

Polvonnazirova Zumrad Komiljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbekiston, Toshkent
e-mail: polvonnazirovazumrad6@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasida insoniylik va hayot saboqlari qanday yoritilganini tahlil qiladi. Hikoya oila ichidagi kichik mojarolarni tasvirlaydi va ularning insoniy munosabatlarga ta’sirini ko‘rsatadi. Muallif anor ramzi orqali mehr-oqibat, sabr-toqat va hurmatning ahamiyatini ta’kidlaydi. Asarda o‘quvchini hayotdagi kichik ehtirosalar va xatolar qanday katta oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglashga undaydi. Qahhor hikoyasi oila qadriyatlarini va insoniylik haqida chuqur fikr yuritishga chaqiradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy hayot, jamiyat, hayot, saboq, ma’naviyat

Abstract: This article analyzes how humanity and life lessons are covered in Abdullah Qahhor's story "Pomegranate". The story depicts small family conflicts and their impact on human relationships. The author emphasizes the importance of kindness, patience and respect through the pomegranate symbol. The work encourages the reader to understand how small passions and mistakes in life can lead to big consequences. The story of Qahhor calls for deep reflection on family values and humanity.

Key words: social life, society, life, lesson, spirituality

“Adulla Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1967). O‘rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetini tamomlagan (1930). Uning ilk «Oy kuyganda» (1924) hajviy she’ri Norin shilpiq taxallusi ostida «Mushtum» jurnalida bosilgan. Yozuvchi «Boshsiz odam» (1929) hikoyasini e’lon kilgach, umrining oxirigacha nasrda samarali ijod qilgan.

Dastlabki hikoyalar to‘plami — «Olam yasharadi» (1935). Shundan so‘ng uning «Hikoyalar» (1935, 1936) to‘plamlari ketma-ket nashr etilgan. Bu davrda u «Sarob» (1935) romanini ham yozgan. «Qo‘shchinor chiroqlari» (1951) romani, «Sinchalak» (1958), «O‘tmishdan ertaklar» (1965), «Muhabbat» (1968) qissalari o‘zbek nasri taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan. U o‘zining «Shoxi so‘zana» («Yangi yer», 1949—53), «Og‘riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» (1962), «Ayajonlarim» (1967) sahna asarlari bilan dramaturg sifatida ham tanilgan. A. S. Pushkin, L. Tolstoy, N. V. Gogol, Chexov asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.



Abdulla Qahhor 1968 yil 25 mayda Moskva shahrida vafot etgan. Xamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1966) laureati. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2000).⁶¹

Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasi o'zbek adabiyotining durdonalaridan biri bo'lib, unda insoniylik, mehr-oqibat, va hayotiy saboqlar haqida chuqur mushohada yuritiladi. Muallif oddiy bir voqea orqali o'quvchini hayotning ma'no-mazmuni haqida o'ylashga, inson qalbining nozik qirralarini his qilishga undaydi.

Hikoya mazmuniga o'tishdan oldin uning epigrifiga e'tiborimizni qaratsak :

"Uylar to'la non, och-nahorim, bolam,
Ariqlar to'la suv, tashnai zorim, bolam."⁶²

Epigrifni XX asr boshidagi o'zbek xalqining nochorlik, ocharchilik holatidan kelib chiqib muallif juda to'g'ri tanlagan. O'sha zamonlarda ba'zi insonlar hattoki non olib yeyishga ham qurbi yetmagan. "Uylar to'la non" iborasi orqali yozuvchi boylik oziq ovqat borligini, lekin ularning oddiy aholi uchun yetarli emasligini aytadi. "Ariqlar to'la suv" iborasi orqali esa xalqning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklanganligini aytib o'tadi.

Asar bosh qahramoni Turobjon bo'lib, nochorlik, kambag'allik tufayli xotini boshi qorong'u bo'lgan paytda yegisi kelgan anorni olib kelib bera olmaganligi tasvirlanadi. Xattoki xotini g'ururiga tegib gapirishi oqibatida og'rilikka qo'l uradi. Turobjon uchun anor, o'zgacha bir ma'no kasb etadi: bu uning iztirobining, orzularining va hayotdagi yo'llarining ramzidir.

Anorning pishishi, o'zgartirilgan shakli va ta'mi – bu Turobjonning o'zgaruvchan ruhiy holati bilan birga, uning atrofidagi jamiyatning ham o'zgarishini ko'rsatadi. Abdulla Qahhorning Anor hikoyasida Turobjonning obrazini o'rganish, uning ichki iztirobini, jamiyat bilan bo'lgan o'zaro aloqalarini va tabiiy dunyo bilan bog'liq tushunchalarini tushunishga yordam beradi. Turobjon va boshqa qahramonlarning obrazlari, XX asrning o'zgaruvchan va murakkab jamiyatida yashayotgan odamlarning ruhiy holatini, iztiroblarini va umidlarini aks ettiradi.

Anorning ramzlari orqali yozuvchi inson ruhiyatining nozikligini va uning hayotidagi muammolarni tasvirlashda chuqur badiiy izlanishlarni amalga oshirgan.


Yozuvchi ushbu hikoya orqali odamlarning moddiy holati qanchalik qiyin bo'lmasin, ruhiy ehtiyojlarini ham unutmasligi, orzu havaslar hayotga mazmun bag'ishlashini eslatib o'tadi. Anor hikoyasi orqali hayotimidagi oddiy narsalarning ham qanchalik qadrli bo'lishi mumkinligini eslatib, hayotiy saboq beradi deyishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Abdulla Qahhorning bu hikoyasi har qanday vaziyatda insoniylikni yo'qotmaslik kerakligini o'rgatadi.

⁶¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968> [9.12.2024]

⁶² Abdulla Qahhor, "Anor" qissa va hikoyalar. - Toshkent, 2012





Hayotning kichik sinovlari ortida yirik saboqlar yotganini his qilishga yordam beradi. Hikoya nafaqat o'quvchini zavqlantiradi, balki chuqur mushohada qilishga, o'z xulq-atvorini qayta baholashga undaydi. Hikoyao'ziga xos badiiyligi bilan o'quvchini insoniy qadriyatlar haqida o'ylashga majbur qiladi. Hayotdagi eng kichik masalalar ham katta saboqlarni keltirishi mumkinligini yodga soladi. Abdulla Qahhor inson qalbining go'zalligini va uning zaifligini tasvirlashda mohir bo'lib, ushbu asar orqali chin insoniylikni targ'ib qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhorov A , “ Anor”qissa va hikoyalar. - Toshkent ,2012- B.200.
- 2 .Abdulla Qahhor .Asarlar.Besh jildlik.Birinchi jild ."G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti" Toshkent 1987
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968> [9.12.2024]
- 4.<file:///C:/Users/User/Downloads/Toshpo%CA%BBlatova.+Barchinoy.pdf> [9.12.2024]
5. https://t.me/s/e_kutubxona?before=4551 [9.12.2024]

